



TEXNOLOGIYA DARSLARINING YOSHLAR HAYOTIDAGI TARBIYAVIY O'RNI

Xamdamova V.A¹, Nishonova I²

¹Qo`qon Davlat Pedagogika Instituti katta o`qituvchisi

²Qo`qon Davlat Pedagogika Instituti Texnologik ta'lim
yo`nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5758420>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20- Noyabr 2021

Ma'qullandi: 25- Noyabr 2021

Chop etildi: 30 - Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Harakatlar strategiyasi
,Texnologiya, amaliy
mashg'ulot turlari,
metodlarini rivojlantirish

ANNOTATSIYA

Texnologiya ta'limi amaliy mashg'ulotlarining tarbiyaviy xususiyati va texnik bilimlarning bilan uzviy bog'lanishi. Texnologiya ta'limi jarayonida o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalarning yoshlar hayotidagi o'rni, o'zaro bog'lanishi hamda uzviylikini ifodalovchi o'quv axboroti mazmunidan foydalanish asosida texnologik ta'limning mavjud yo'nalishlari asosida ixtisosliklarga qiziqishni shakllantirish bo'yicha o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro hamkorligi tashkil etish oid masalalari yoritilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, yerkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni asosida

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasida mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;



5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Texnologiya darslarining yoshlar hayotidagi tarbiyaviy ahamiyati va vazifalarni o'qitishning mazmuni, shuningdek o'quv ishlarining tashkiliy shakl va metodlari orqali amalga oshirishdan iborat Xar bir taraqqiyot bosqichiga o'tishning sharti faqat mehnat unumdorligini muntazam oshirish va moddiy ne'matlar mo'l-ko'lligini yaratishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki yosh avlodda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalashdan ham iborat. Chunki texnologiya darslari orqali bolalarda, yoshlarda mehnat qilish, o'z mehnati orqali katta yutuqlarga erishish, oilaga tayyorlash yotadi. Jumladan o'g'il bolalar uchun alohida va qizlar uchun ham juda muhimligini, kasbga yo'naltirish va kelajakda esa mustaqil hayotdagi qiyinchiliklarni yengishida texnologiya darslari juda zarur. Bu eng avvalo jamiyat manfaatlari yo'lida qilinadigan jarayonida shakllanadi.

Texnologiya jarayonida o'quvchilarda asbob-uskunalar, materiallar, ustaxona binolariga, o'quv vaqtida tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish hissi tarbiyalanadi. O'quv ustaxonalaridagi mehnat madaniyati – ish o'rnini tashkil etish va o'quv-mehnat mashg'ulotlarini to'g'ri rejalashtirish; mehnat va kasb ta'lim darslarini qo'l asboblari bilan bir qatorda turli moslamalar bilan ta'minlash ham katta ahamiyatga ega, negaki ular faqat o'quvchilarning ish sifatini yaxshilab qolmasdan, ayni vaqtda mehnat unumdorligini ham oshiradi. O'qituvchining mehnat va hunar usullarini ko'rsatish vaqtidagi shaxsiy namunasi, uning umumiy

madaniyati o'quvchilar uchun kuchli tarbiyaviy vosita bo'lib hisoblanadi.

Texnologiya darslarining amaliy mashg'ulot jarayonida dastur mavzuning mazmunini ochib berishda, mehnat va kasb ta'limi hamda tarbiyasining maqsadlari, vazifalari amalga oshiriladi.

Demak, amaliy mashg'ulot deganda o'quvchilarning o'quv materialini faol, ongli va mustahkam o'zlashtirishi maqsadida mehnat o'qituvchisi (ishlab chiqarish ta'limi ustasi) rahbarligida amalga oshirilsagina ham jamoa, ham yakka tartibdagi ish turlarini o'z ichiga oladigan o'quv-mehnat faoliyatini aniq tashkil etishni tushunish kerak.

Texnologiya sohasidagi amaliy mashg'ulotlar turli tipda bo'lishi, ya'ni yangi texnik-texnologik ma'lumotlarni va mehnat jarayonlarini o'rganishga, bilimlarni, mehnat ko'nikmalari va malakalarini mustahkamlashga, nazorat qilish-tekshirish ishlari, korxonalariga ekskursiyalar o'tkazish va hokazolarga bag'ishlangan mashg'ulotlar bo'lishi mumkin. Lekin o'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarning turlari xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, ularning hammasi quyidagi umumiy talablarga mos kelishi lozim:

1. Mashg'ulotning maqsadi hamda vazifalari aniq va ravshan ifodalangan bo'lishi lozim.

2. Mashg'ulotning tuzilishi didiaktik jihatdan o'zini oqlagan va o'quv materialining mazmuniga to'liq javob beradigan bo'lishi kerak.

3. Amaliy ishlarning ob'ektlari to'g'ri tanlanishi, ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo'lishi va o'rganiladigan texnologiya jarayonlari va usullarining talablariga muvofiq kelishi zarur.



4. Mashg'ulotlarda foydalaniladigan metodlari dars talablariga va o'quv materiallarining mazmuniga to'liq javob berishi lozim.

5. O'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarning tashkiliy-metodik tuzilishi o'quvchilar bilan jamoa tarzida va yakka tartibda ish olib borishini nazarda tutishi kerak.

6. Texnologiya fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda o'tkaziladigan ta'lim ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi, ya'ni maktab o'quvchilarida ma'naviy sifatlarni tarkib toptirishga yordam berishi lozim.

Amaliy mashg'ulot turlarining xilma-xilligiga qaramasdan, ulardagi umumiy didaktik tomonlarni ham ta'kidlab o'tish kerakki, bular o'quvchilarni navbatdagi o'quv materialini o'zlashtirish uchun jalb qilishga qaratilgan mashg'ulotlarni uyushtirish; o'quvchilar ilgarigi mashg'ulotda o'zlashtirgan bilimlar, mehnat ko'nikmalari va malakalari darajasini tekshirish; yangi materialni tushuntirish va mehnat jarayonlarini hamda amaliy ishlarni bajarish vaqtida mehnat usullarini ko'rsatib berish; o'quvchilarning yangi mavzuga oid jarayonlarni va ishlarni bajarish vaqtida ularning bilimi, mehnat usullari darajasini aniqlash; mehnat usullarini mashqlar bilan mustahkamlash va ularni dastlabki mehnat ko'nikmalari darajasiga yetkazish, bunda texnologiya o'qituvchisining puxta nazorat qilishi va o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat

qilishiga erishish; amaliy topshiriqning mustaqil bajarilishi va o'tgan mashg'ulotning natijalariga yakun yasashdan iborat.

Texnologiya darslarida metodlarini rivojlantirish va takomillashtirishda psixolog va fiziologlarining, ayniqsa o'quvchilarda mehnat ko'nikmalari va malakalarini tarkib toptirish, ularning mazmuni va tasnifi sohasidagi, mehnat faoliyatining aqliy jihatlarini, shakllarini, hozirgi zamon ishlab chiqarishi xodimlari uchun xos bo'lgan ijodiy faollik, tashabbuskorlik va boshqa muhim sifatlarini tekshirish sohasidagi tadqiqotlari muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim jarayonining, xususan o'quvchilar mehnat va kasb faoliyatining tezlashuvchi xilma-xil maxsus trenajyorlar ro'yxatga oluvchi va tekshiruvchi qurilmalar ishlab chiqish va ulardan foydalanishni zarur qilib qo'ydi, bu qurilmalar o'quvchilarning mehnat harakatlarini qayd qilish va ish vaqtida yo'l qo'yiladigan kamchiliklar to'g'risida tezda xabar yetkazish imkonini beradi. O'quvchilarning ana shunday trenajyorlardan va tekshiruvchi qurilmalardan foydalangan holda turli mashqlar o'tkazish, ayniqsa mehnat usullarini tarkib toptirishning boshlang'ich bosqichida, mehnat va kasb ta'limining eng muhim metodlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N. va b. T. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: 2009 427 b.
2. Qo'ysinov O.A., Sattorov.V.N., Yakubova H.S. Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi. (Metodik qo'llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2011. 79 b.



3. Sharipov Sh. S., Abralova M. Maktablar o'quv va o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari uchun xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Metodik yo'riqnoma. –T: RTM. 2002.
4. Sharipov Sh.S., Jalilov T. Mehnat ta'limi ustaxonalari uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq ko'rgazmali qurollar ro'yxati. Metodik qo'llanma. Toshkent, Respublika ta'lim markazi. 2002.
5. Sharipov Sh.S, Yakubova H.S. Mehnat ta'limi metodikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari. Metodik qo'llanma. Toshkent-2008.
6. <http://www.istedod.uz>
7. <http://www.pedagog.uz>
8. <http://www.ziyonet.uz>
9. <http://www.tdpu.uz>
10. <http://www.Abduqodirov.pbnet.ru>